

AYNI KUNLARDA VILOYATIMIZDA PAXTA YIG'IM-TERIMI DAVOM ETAYOTGAN BO'LIB, HOSILNI SIFATLI TERIB OLISHGA MUHIM E'TIBOR QARATILMOQDA

Furqat tumanida joriy yilda 189 ta fermer xo'jaliklari tomonidan 5050 hektar maydonda paxta yetishtirildi. 70 ta terim otryadlari shakllantirilgan bo'lib, terimchilar tomonidan paxta terish ishlari olib borilmoqda.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Furqat tumanida fermer xo'jaliklaridagi mavsum jarayoni hamda yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmasdan o'z vaqtida va sifatli yig'ib-terib olish ishlari bilan tanishdi.

"To'lqinjon ota", "Xudayberdi Mohigul", "Faridaxon quvonchi" fermer xo'jaliklarida bo'lib, hosil ko'zdan kechirildi. "Do'stlik" MMTP hududidagi fermer xo'jaliklarida terim mavsumining borishi bilan tanishildi.

Viloyatimizda bugungi kunda paxtachilikda yangi texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida hosildorlik oshayotganligi, ammo bu borada furqatlik fermerlar ortda qolayotganligi ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga bugundan boshlab, qo'lda terilgan paxtaning har bir kilogrammi uchun 2 ming 500 so'mdan haq to'lanishi ma'lum qilindi. Kelgusi yilda "Mezon" fermer xo'jaligi tajribasi asosida paxta yetishtirishga e'tibor qaratirish, paxta terim mashinalarini ko'paytirish zarurligi qayd etildi.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-10 09:15:02